

**ODIL YOQUBOV IJODIDA INSON RUHIYATI VA AXLOQIY TANLOV
MASALASI****Xo'jaqulova Sevinch Iskandar qizi,***Shahrisabz davlat pedagogika instituti**Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi**sevinchxojaqulova099@gmail.com*<https://orcid.org/0009-0001-4694-9655>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Odil Yoqubov qissalarining badiiy xususiyatlari, g'oyaviy mazmuni hamda inson ruhiyati tasviridagi o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida yozuvchining "Muqaddas" va "Billur qandillar" qissalari asosida inson vijdoni, muhabbat, ma'naviy qadriyatlar va hayotiy tanlov muammolari badiiy jihatdan o'rganildi. Asarlarda qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari hamda jamiyat bilan bo'lgan munosabatlari badiiy vositalar orqali qanday ifodalangani tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: O'zbek nasri, qissa janri, badiiy tahlil, inson ruhiyati, ma'naviy qadriyatlar, badiiy obraz, axloqiy tanlov.

Аннотация. В данной статье анализируются художественные особенности, идеологическое содержание и уникальные аспекты изображения человеческой психики в рассказах Одиля Якубова. В ходе исследования на основе рассказов писателя "Священное" и "Хрустальные люстры" художественно изучались проблемы человеческой совести, любви, духовных ценностей и жизненного выбора. Авторы анализируют, как внутренние переживания, душевные муки и отношения персонажей с обществом выражаются в произведениях посредством художественных средств.

Ключевые слова: Узбекская проза, жанр короткого рассказа, художественный анализ, человеческая психика, духовные ценности, художественный образ, моральный выбор.

Abstract. This article analyzes the artistic features, ideological content, and unique aspects of the depiction of the human psyche in the stories of Odil Yakubov. In the course of the research, the problems of human conscience, love, spiritual values, and life choices were studied artistically based on the writer's stories "The Sacred" and "Crystal Chandeliers". The authors analyzed how the inner experiences, mental anguish, and relationships of the characters with society were expressed through artistic means in the works.

Key words: Uzbek prose, short story genre, artistic analysis, human psyche, spiritual values, artistic image, moral choice.

Kirish. Odil Yoqubov XX asr o'zbek nashrining yirik namoyondalaridan biri. Uning o'zbek adabiyoti rivoji uchun qo'shgan hissasi beqiyosdir. Adibning asarlari o'zbek xalqining milliy qadriyatlari, an'alarini xalq orasida shakllanishida beqiyos dastur amal bo'lib xizmat qilmoqda. Adib nasrda salmoqli ijod etgan. Uning hikoya, qissa, romanlari anchagina bo'lib, ular turli mavzularni yaratilgan. Uning qissalariga keladigan bo'lsak, mavzu ko'lami har xil bo'lib, inson taqdiri, shaxs xususiyatlarini ochib berish uchun qaratilgan. Odil Yoqubovning "Qanot juft bo'ladi", "Muqaddas", "Billur qandillar", "Matluba", "Qaydasan, Moriko?" kabi ko'plab qissalari bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega asarlari sifatida qadrlanadi. Ularning har birida inson hayoti, taqdiri va ruhiy kechinmalarini chuqur ochib beradi. Adib qahramonlarining xarakterini, ularning ichki dunyosini, kechinma va qarorlarini nozik badiiy vositalar bilan tasvirlaydi.

Shuningdek, asarlarida o'zbek xalqining urf-odatlari, ma'naviy qadriyatlari va ijtimoiy hayoti jonli va aniq aks ettirilgan. Odil Yoqubovning qissalarida mavzular xilma-xil bo'lib, ular orqali insoniy fazilatlar, sadoqat, mehr-shafqat, mas'uliyat, orzu-intilishlar va insoniy kurash kabi jihatlar yoritiladi. Qahramonlar hayoti, ularning duch kelgan sinovlari va ichki iztiroblari o'quvchida hayotiy tajriba va estetik hissiyot uyg'otadi. Shu bilan birga, adibning ijodida voqelikni soddalashtirmasdan, uning murakkab va ko'p qirrali tomonlarini ochib berish xususiyati bor. Uning asarlari nasr san'ati rivojida muhim bosqichni tashkil etadi va o'zbek adabiyoti tarixida mustahkam o'rin egallaydi. Odil Yoqubov ijodining o'quvchi va adabiyotshunoslar tomonidan qadrlanishi, uning asarlarining bugungi kunda ham o'rganilishi va muhokama qilinishi shuni ko'rsatadiki, adibning ijodi nafaqat o'tmishimizning, balki zamonaviy adabiyotning ham muhim merosi sifatida qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Odil Yoqubov ijodi o'zbek adabiyotida inson ruhiyati va axloqiy tanlov masalalarini teran yoritishi bilan ajralib turadi. Adibning qissalari kitobxonni shunchaki voqealar ketma-ketligi bilan emas, balki inson qalbidagi murakkab kechinmalar orqali o'ylarga chorlaydi. Yozuvchi asarlarida tayyor xulosa yoki oson yechim bermaydi; aksincha, voqealar rivoji kitobxonni mustaqil fikr yuritishga undaydi. Shu bois uning har bir qissasi o'quvchini hayot, vijdon va insoniy munosabatlar haqida chuqur mulohaza qilishga yetaklaydi. Adibning "Muqaddas" qissasi ham ana shunday ruhiy-falsafiy mazmunga ega asarlardan biridir. Asarda Muqaddas ismli samimiy, sodda va beg'ubor qizning hayoti tasvirlanadi. U o'qishga kirish orzusi bilan shaharga keladi. Shu yerda u bir yosh yigit bilan tanishadi va ular birgalikda imtihonlarga tayyorlana boshlaydilar. Ikki yoshning tanishuvi, orzu-intilishlari hamda mustaqil hayot sari qo'ygan dastlabki qadamlari qissa voqealarining asosiy mazmunini tashkil etadi. Asar voqealari yigit tilidan hikoya qilinadi. Shu sababli qissada qahramonning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va hissiyotlari nihoyatda jonli va tabiiy tasvirlangan. Yigit qalbida ikki xil tuyg'u — Muqaddasga bo'lgan beg'ubor muhabbat hamda o'z hayot yo'lini tanlash mas'uliyati o'rtasida ichki kurash kechadi. Har ikki yo'l ham uning uchun qadrli bo'lgani sababli u chuqur ruhiy iztiroblarni boshdan kechiradi. Imtihon natijalariga ko'ra, yigit o'qishga kirish uchun yetarli ball to'play olmaydi. Shundan so'ng u o'zining sevimli mashg'uloti bilan shug'ullanib, oddiy hayotini davom ettirish haqida o'ylaydi. Biroq onasi va o'gay otasi tanish-bilishlar orqali uning inshosini qayta yozdirib, imtihondan o'tishiga yordam berish yo'lini topadilar. Dastlab yigit bunga qarshi bo'ladi, ammo onasining qistovi va Muqaddas bilan birga o'qish istagi uni bu qarorga ko'nishga majbur qiladi. Voqealar rivojida esa kutilmagan haqiqat ayon bo'ladi: yigit aslida Muqaddasning o'rniga o'qishga kirib qo'ygan edi. Bu holatdan u mutlaqo bexabar bo'lgan va xohlamagan holda xato qilganini anglab yetadi. U Muqaddasdan kechirim so'raydi, biroq bu kechirim vaziyatni o'zgartira olmaydi. Natijada yigit o'qishni davom ettirmasdan, o'z mehnati bilan yashashni va halol hayot kechirishni maqsad qiladi. "Muqaddas" qissasi

orqali yozuvchi inson vijdoni, muhabbat va halollik masalalarini chuqur badiiy talqin qiladi. Asar kitobxonni insoniy qadriyatlar, tanlov va mas'uliyat haqida o'ylashga undaydi. Shu jihatdan qissa nafaqat ikki yosh taqdiri haqida hikoya qiladi, balki inson vijdoni va axloqiy tanlovning murakkabligini ham badiiy ifodalaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Odil Yoqubov o'z ijodi orqali inson ruhiyati, jamiyat muammolari va ma'naviy qadriyatlarni chuqur badiiy talqin qilgan adiblardan hisoblanadi. Uning qissalari hayotiyliigi, obrazlarning tabiiyligi hamda inson qalbidagi murakkab kechinmalarni tasvirlashdagi mahorati bilan ajralib turadi. Yozuvchi o'z asarlarida oddiy voqealar orqali katta ijtimoiy va axloqiy masalalarni ko'taradi, qahramonlarning ruhiy olami orqali davr muammolarini ochib beradi. Adib qissalarida insonning vijdoni, hayotiy tanlovi, muhabbat, sadoqat va ma'naviy masalalar markaziy o'rin egallaydi. Shu jihatdan yozuvchining har bir qissasi nafaqat badiiy asar, balki inson hayoti va jamiyat haqidagi chuqur mulohazalarni o'zida mujassam etgan asar sifatida e'tiborga loyiqdir. Yozuvchining ana shunday mazmunli qissalaridan biri "Billur qandillar" qissasidir. Mazkur asarda ham insoniy munosabatlar, hayotiy qadriyatlar va qahramonlarning ichki kechinmalari badiiy mahorat bilan tasvirlangan. Qissada muallif jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarni, inson qalbidagi ziddiyatlarni badiiy obrazlar orqali ochib berishga intiladi. Qissa nomi nima uchun "billur qandillar" deb nomlangan? Kitobxonni xayoliga birinchi shu savol keladi. Nima uchun yozuvchi bunaqa deb nomlangan?. Asli olib qaralganda asarning butun videolari asosini billur chiroyli qandillar tashkil etadi. Asar qahramoni Nilufar go'zallik va nafosat timsoli bo'lishi bilan birga, ruhiy bo'shliq va iztirobda yashayotgan ayol. Uning hayoti tashqaridan "billur qandillar"dek yaltiroq ko'rinsa-da, ich-ichidan baxtsiz. Nilufar o'zining haqiqiy his-tuyg'ularini boylik va qimmatbaho buyumlar orasidan qidiradi, ammo qalbidagi bo'shliqni faqat samimiy insoniy munosabat bilangina to'ldirish mumkinligini anglab yetadi. Nilufarning eri asarda mansabparastlik va moddiy farovonlikka berilgan qatlam vakili sifatida namoyon bo'ladi. U ayoliga moddiy dunyo yaratib beradi-yu, lekin uning ma'naviy olamini tushunishga harakat qilmaydi. Uning uchun nufuz va jamiyatdagi mavqeyi Nilufarning hissiyotlaridan ustun turadi. Hikmatillo obrazi asarga samimiyat va beg'uborlik elementini olib kiradi. U Nilufarning zerikarli va "yaltiroq" hayotiga bir umid nuri kabi kirib keladi. Uning yoshligi, sodda, ammo teran qarashlari Nilufarni o'z hayotiga boshqacha ko'z bilan qarashga majbur qiladi. Asar yakunida Nilufar uchun qimmatbaho bejirim narsalar emas, balki chin muhabbat sevgi kerakligini anglab yetdi. Odil Yoqubovning "Billur qandillar" qissasi inson hayotida moddiy boylik bilan ma'naviy baxt o'rtasidagi tafovutni chuqur badiiy talqin etadi. Asarda tashqi hashamat va boylik baxtning haqiqiy mezoni bo'la olmasligi, inson qalbidagi bo'shliqni esa faqat samimiylik, mehr va chin insoniy munosabatlarga to'ldira olishi g'oyasi ilgari suriladi. Nilufar obrazi orqali yozuvchi tashqi tomondan farovon ko'ringan hayot ham aslida ruhiy iztiroblarga boy bo'lishi mumkinligini

ko'rsatadi. Shu tariqa qissa kitobxonni insoniy qadriyatlar, muhabbat va ma'naviy baxt haqida chuqur mushohada yuritishga undaydi.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Odil Yoqubov qissalarida inson ruhiyati, axloqiy tanlov va ma'naviy qadriyatlar masalasi yetakchi o'rin egallaydi. Adib o'z asarlarida qahramonlarning ichki kechinmalarini chuqur ochib berish orqali inson hayotining murakkab va ko'p qirrali tomonlarini yoritadi. Ayniqsa, qissalarda tasvirlangan obrazlar orqali shaxsning jamiyat bilan munosabati, uning ichki iztiroblari hamda hayotiy qarorlari badiiy jihatdan teran ifodalanadi. Tahlil qilingan "Muqaddas" qissasida inson vijdoni, halollik va muhabbat masalalari markaziy o'rinda turadi. Asarda yosh qahramonning ichki ziddiyatlari orqali hayotiy tanlovning murakkabligi ko'rsatiladi. Qahramon xohlamagan holda xatoga yo'l qo'yganini anglab yetgach, o'z vijdoni oldida javobgarlikni his qiladi va halol yo'lni tanlashga intiladi. Bu holat yozuvchining insoniy fazilatlarini ulug'lashga qaratilgan g'oyasini yaqqol namoyon etadi. "Billur qandillar" qissasi tahlili esa yozuvchining badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalanganini ko'rsatadi. Asarda Nilufar obrazi orqali tashqi hashamat va boylik insonni haqiqiy baxtga olib bormasligi g'oyasi ilgari suriladi. Qahramon hayotining tashqi tomondan chiroyli va farovon ko'rinishi aslida uning ichki dunyosidagi bo'shliq va iztiroblarni yashira olmaydi. Shu tariqa yozuvchi moddiy farovonlik bilan ma'naviy baxt o'rtasidagi tafovutni badiiy obrazlar orqali ochib beradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Odil Yoqubov qissalari o'zbek nasrida inson ruhiyatini chuqur tahlil qilishi, hayotiy muammolarni badiiy va falsafiy jihatdan yoritishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Adib asarlarida insoniy qadriyatlar, muhabbat, vijdon, halollik va ma'naviy masalalar keng yoritilib, o'quvchini hayotiy xulosalar chiqarishga undaydi. Shu sababli yozuvchining qissalari nafaqat badiiy qiymati bilan, balki tarbiyaviy va ma'naviy ahamiyati bilan ham o'zbek adabiyoti rivojida muhim o'rin egallaydi.

Xulosa va takliflar. Odil Yoqubov o'zbek adabiyotida inson ruhiyati, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy muammolarni chuqur badiiy talqin etgan yirik adiblardan biridir. Uning qissalari inson hayotining turli qirralarini ochib berishi, qahramonlarning ichki dunyosi va ruhiy kechinmalarini nozik badiiy vositalar orqali tasvirlashi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Adib asarlarida insoniy fazilatlar, vijdon, muhabbat, sadoqat, halollik kabi qadriyatlar markaziy o'rinda turadi. Shu jihatdan yozuvchining qissalari nafaqat badiiy asar sifatida, balki ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan adabiy meros sifatida ham qadrlanadi. "Muqaddas" va "Billur qandillar" qissalari orqali yozuvchining inson taqdiri va ruhiy olamini tasvirlashdagi badiiy mahorati yaqqol namoyon bo'ldi. "Muqaddas" qissasida inson vijdoni, halollik va hayotiy tanlov muammosi tasvirlangan bo'lsa, "Billur qandillar" qissasida esa moddiy farovonlik bilan ma'naviy baxt o'rtasidagi tafovut masalasi badiiy jihatdan ochib beriladi. Har ikki asarda ham yozuvchi qahramonlarning ruhiy kechinmalarini chuqur tahlil qilish orqali kitobxonni hayotiy xulosalar chiqarishga undaydi. Bu esa Odil Yoqubov ijodining o'ziga xos xususiyatlaridan

biri hisoblanadi. Yozuvchining qissalarida inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, shaxsning ichki kurashi hamda hayotiy qarorlar qabul qilish jarayoni badiiy jihatdan teran ifodalangan. Adib voqelikni soddalashtirmasdan, uning murakkab va ko'p qirrali tomonlarini ochib berishga intiladi. Natijada qahramonlarning hayotiy taqdiri orqali jamiyatdagi ma'naviy muammolar ham yoritiladi. Shu sababli yozuvchining qissalari o'zbek nasrining rivojida muhim o'rin tutadi va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Odil Yoqubov qissalari o'zbek adabiyoti taraqqiyotida muhim o'rin egallagan badiiy asarlar bo'lib, ular inson ruhiyati, hayotiy tanlov va ma'naviy qadriyatlar haqida chuqur mulohaza yuritishga undaydi. Shu sababli yozuvchining ijodini yanada chuqurroq o'rganish va targ'ib qilish o'zbek adabiyotshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: “O‘zbekiston” 2002.
2. Habibullayev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. – Toshkent: “Yangi asr avlodi” 2012.
3. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: “O‘qituvchi” 1999.
4. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. –Toshkent: “Akademnashr” 2010.
5. Yoqubov O. Billur qandillar. – Toshkent: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot” 1980.
6. Yoqubov O. Muqaddas. – Toshkent: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot” 1970.
7. Yoqubov O. Qanot juft bo'ladi. – Toshkent: “Adabiyot va san'at nashriyoti” 1975.
8. Yoqubov O. Qaydasan, Moriko? – Toshkent: “Sharq nashriyoti” 1990

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934